

## Ta'lim Qozoq Tilida Olib Boriladigan Sinflarda Polilingval Yondashish Asosida Boshlang'ish Talimni Sifatini Ochirish Masalalari Ona Tili Va O'Quv Savodxonligi O'quv Fani Misolida

*Tajibayeva Akmaral Raxmetulla Qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash, ta'lim qozoq tilida olib boriladigan sinflarda polilingval yondashish asosida boshlang'ish talimni sifatini ochirish, ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq ta'limi, kamol toptirish, qozoq adabiyoti, darslik, kompetensiya, g'oya, lug'at, grammatika, qoida.

Respublikamiz xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi bir qator qarorlarni qabul qildi.

Hozirgi kunda yoshlarning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, har tomonlama bilimdon bo'lishga yordam berish, milliy mafkurani shakllantirish, ularni vatanga bo'lgan muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga, boy madaniy me'rosimiz va albatta, tarixiy an'analimizga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarni hal qiluvchi omilidir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda yangi-yangi usullarni izlab topish, yangi pedagogik texnologiyaning ilg'or pedagogik texnologiyalarini dars jarayonida tadbiiq etish borasida ham ko'pgina yo'l-yo'riqlar aytib o'tilgan.

O'zbek va qozoq millati qardosh xalq ekani hech kimga sir emas. Xalqlarning an'analari, urf-odatlari, turmush tarzi o'xshash. Ikki xalq ham do'stlikni qadrlaydi. Jumladan, qozoqlarda shunday maqol bor: «Досың көп болса, жолыңда ашылады» (Do'sting ko'p bo'lsa, yo'ling ham ravon bo'ladi). O'zbeklar ham do'stlikni yuksak darajada qadrlaydi: "Do'sting – boyliging, do'sting - davlatingdir". Bunday maqollar ko'plab topiladi. Bugungi kunda ikkala davlat o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni quyidagi yo'nalishlarda mustahkamlanib borayotganini ko'rish mumkin.

Xususan birgina ta'lim sohasiga to'xtalib o'tsak, ta'lim sohasida O'zbekiston va Qozog'iston ta'lim muassasalari o'rtasida talabalar almashinuvi, o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish, tajriba almashish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Hozirda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari va Qozog'istonning 50 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik kelishuvlari amal qilmoqda. Davlatlarning Fanlar akademiyalari o'rtasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilgan, jumladan, birgalikda turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, kelgusida universitetlar konsorsiumini tashkil qilish bo'yicha kelishuvlar bunga misol bo'la oladi. Ayni vaqtda, mamlakatimizdagi 400 ta maktabda mashg'ulotlar qozoq tilida olib boriladi. 162 ta maktabda esa ta'lim faqat qozoq tilida beriladi. Oliy ta'lim muassasalari tizimida Toshkent davlat pedagogika universitetida, Guliston davlat universitetida, shuningdek, Nukus, Jizzax va Navoiy davlat universitetlarida qozoq tili va adabiyoti fakultetlari tashkil qilingan.

<sup>1</sup> Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ta'lim tarbiya nazariyasi va teoriyasi (boshlang'ich talim) yo'nalishi 1-kurs magistranti



Shu o'rinda ta'lim qozoq tilida olib boriladigan sinflarda polilingval yondashish asosida boshlang'ich talimni sifatini ochirish masalalariga ona tili va o'quv savodxonligi o'quv fani misolida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Boshlang'ich ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va faollashtirishga bog'liq bo'ladi. Har bir darsda o'rganiladigan mavzuning mazmunini e'tiborga olgan holda kichik guruhlarda ishlash, didaktik o'yinlar, "Aqliy hujum", o'z-o'zini baholash kabilardan foydalaniladi. Bunday usullarda ilg'or pedagogik texnologiyaning didaktik o'yinli texnologiyalari didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Bunda bilim olish o'yin bilan uyg'unlashtiriladi.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi. Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.

Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi. Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.



**2-тапсырма:** «Туған жер – алтын бесігім» тақы-  
бырында эссе жаз.

### 3-сабақ. Ташкент



Отанымыздың астанасы – Ташкент қаласы. Ташкент Орта Азиядағы ең көне қалалардың бірі саналады. Тәуелсіздік жылдарында Ташкент қаласы заманауи қалаға айналды. Қалада көшелер кеңейді, үлкен көпірлер, аспанмен тірескен зәулім үйлер, түрлі ғимараттар, спорт кешендері, саябақтар, жер асты және жер үсті жолының жаңа бағыттары құрылды.

Тәуелсіздіктің алғашқы жылдарында «Тәуелсіздік алаңы» құрылған еді. Қазіргі таңда «Хумо Арена» мұз сарайы, «Бес жұлдызды қонақ үйі», «Темурилер мұражайы», «Бунёдкор» спорт кешені сияқты заманауи ғимараттар және түрлі пішіндерді бейнелейтін су бұрқақтар қала көркіне көрік қосып, дүние жүзіндегі ең сұлу қалалар қатарынан орын алды. Ташкентте түрлі ұлт өкілдері жасайды. Сондықтан біз Ташкентті достық қаласы дейміз.

Ташкент қаласы – Өз бекстанның бас қаласы! Ол біздің мақтанышымыз! Ташкент – біздің орталық қаламыз!

Darslikdagi tasvirlar orqali mavzular tushuntirilgan ya'ni bu kitob ko'rgazmalilikka asoslangan. Kitobda avval biron-bir mavzuni yoritadigan tushunishga yordam beradigan mashqlar berilgan.



1. Мәтін не туралы?  
2. Тәуелсіздік жылдары Ташкентте қандай өзгерістер болды?  
3. Неліктен достық қаласы дейміз?

**1-тапсырма.** Ташкент қаласындағы өзгерістер жайлы айт? Сен Ташкентте болдың ба? Сен онда не көрдің? Саған не ұнады?

Бұл – күндізгі Ташкент.



Бұл – түнгі Ташкент.



Дыбыстар әріптермен таңбаланып жазылады. Дыбыстарды естиміз, айтамыз. Әріптерді көреміз, жазамыз.

**2-тапсырма.** Мәтінді көшіріп жазып, жуан дауысты дыбыстардың астын бір, жіңішке дауысты дыбыстардың астын екі сызықпен сыз.



Ташкент қаласындағы Хумо Арена мұз сарайы өте үлкен. Оның ішіне он төрт мың көрермен сыяды. Ол көп тармақты алаң болып, мұз үстінде хоккей, шорт-трек, фигуралы ұшу сияқты қысқы спорт түрлері және бокс, волейбол

тағы басқа спорт ойындарын ұйымдастыру мүмкін.

Ushbu mashqlar orqali o'quvchilar hech qanda qoidasiz til dalillarini isbotlash, ularga misol keltirish orqali induktiv metod asosida mavzularni qiziqarli trazda o'zlshtiradilar. Darslikning yangi nashri milliy dasturdagi nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni to'la qanoatlantiradi. So'z tarkibi mavzusiga oid mashqlarda egalik, kelishik va so'z yasovchi qo'shimchalarga oid mashqlar berilgan.

**2-тапсырма.** Көп нүктенің орнына тисті сөздерді қойып көшіріп жаз және и әрпінің астын сыз.

Мынау – менің ..... . Ол таза, жарық және ..... . Менің ..... өзіме ұнайды. Бұл менің – ..... . Олар ....., әдепті. Менің сыныбымда ..... ұл бала, ..... қыз бала оқиды. Олар ақылды, ..... . Мен сыныптастарымды ..... көремін.

**Қажетті сөздер:** жақсы, мектебім, кең, сыныбым, тәртіпті, оқымысты, жеті, тоғыз, сыныптастарым.

Ularda grammatik qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash, qo'shimchalarni qo'yib so'zlarni o'qish, ma'nlarini izohlash kabi shartlar qo'yilgan. Bu mashqlarni yozish davomida o'quvchilar so'z o'zagi va qo'shimchalarning qo'llanishiga oid amaliy bilimlarga ega bo'ladilar. So'z tarkibiga oid topshiriqlar "So'z yasovchi qo'shimchalar" mavzusiga tayyorlov bosqichini o'taydi. So'z tarkibi mavzusini mustahkamlash maqsadida har bir kelishikni o'rganish uchun alohida mavzular berilgan. Kelishiklar mavzusidan so'ng so'z yasovchi qo'shimchalar yoritilgan. Darslik dasturning og'zaki fikr ifodalashda o'zlashirilgan leksik birliklarni maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish kompetensiyasini qanoatlantiradi.





**1-тапсырма.** Суреттегі артықша затты тап. Сынып жиһаздары не үшін қажет екендігін айт.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish savodxonligi darslarida didaktika bilan, ya'ni bilimning umumiy nazariyasi bilan xam bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qoniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. XALQ TA'LIMI TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH SOHASIDAGI XALQARO TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA. O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent sh., 2018-yil 8-dekabr., 997-son
2. Bitiboyeva K. O. Adabiyotni o'qitishning innovatsion texnologiyasi. UstKamenogorsk, 2002 yil.
3. Isabaev A. Qozoq tilini o'qitishning didaktik asoslari. Olmaota, Qozon universiteti nashriyoti, 1993 y.
4. Isabaev A. Qozoq tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2003 yil.
5. Beysenbaeva A. Ta'lim jarayonini fanlararo aloqa asosida tashkil etish. Olmaota -1995 yil.
6. Konyratbaev A. Adabiyotni o'qitish metodikasi. Olmaota - 1990 yil.
7. Kdyrova GG O'qitishning yangi texnologik usullaridan foydalanish sifatli ta'limning asosidir. - // Ta'lim №3. - 2017 yil.
8. Raximjonov K.A. Qozoq tilidagi innovatsion tashabbuslar. - // Ta'lim. №2.

